

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

*KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI
MUAMMOLARI.....* 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI..... 10-12

Odinayev Mirjalol

*"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA
QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA
SOLISHDA INNOVATSION YECHIM* 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI..... 23-25

Xalilov Baxodir

*ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY
VILOYATI MISOLIDA* 26-31

Xoliqova Ra'noxon

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI,
GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI".....* 32-34

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI..... 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN..... 39-43

Raxmanov Ulugbek

*TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ
TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH* 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI..... 46-49

Mansurova Sayyora

*INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA
ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI* 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH..... 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

*EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM
GLOBAL EXPERIENCES.....* 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARIII..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHITINING GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARIII 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNING O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLIY - MADANIY XUSUSIYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL 100-102*

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKARI 103-107*

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR..... 108-110*

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI

Nabiyeva Umida Xusanovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Pediatriya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ahmadaliyeva Dano Toganovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti "Klinik fanlar" kafedrasini katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Gipertoniya-yurak qon tomir tizimi bilan bog`liq kasallik hisoblanib, qonning oqish tezligi oshishi bilan kechadigan kasallik. Mamlakatimiz aholisining 40% shu kasallik bilan aziyat chekadi. Erkaklarning 37%, ayollarning 58% kasallikka chalinganini bilishadi va ularning 22 va 46% gina davolanadi xolos. Gipertoniya surunkali kasallik hisoblanib, davomiy davolanish va qatiy nazoratni talab qiladi. ushbu maqolada gipertoniyaning kelib chiqishi, oldini olish haqidagi savollarga javob beriladi.

Kalit so`zlar: Arterial bosim, semizlik, qandli diabet, osh tuzi, gipodinamiya, yurak, miya, ateroskleroz

THE ORIGIN OF HYPERTENSION AND MODERN PRINCIPLES OF ITS PREVENTION

Nabieva Umida Khusanovna

2-year student at the Pediatric Faculty of Kimyo International University in Tashkent

Scientific supervisor: Akhmadalieva Dano Toganovna

Senior Lecturer of the Department

"Clinical Disciplines" Kimyo International University in Tashkent

Annotation. Hypertension is a disease related to the cardiovascular system and is characterized by an increase in blood flow velocity. About 40% of the population in our country suffers from this condition. 37% of men and 58% of women are aware that they have hypertension, but only 22% of men and 46% of women receive treatment. Hypertension is considered a chronic disease that requires long-term treatment and strict control. This article addresses questions about the origin of hypertension and the principles of its prevention.

Key words: Blood pressure, obesity, diabetes mellitus, table salt, physical inactivity, heart, brain, atherosclerosis.

Gipertoniya(essentials gipertenziya)-maksimal va minimal arterial bosimning ko`tarilishi bilan bog`liq holda , organizm yoki organlarda hech qanday organik o`zgarish ro`y bermay, tomirlar tonusining o`zgarishi va yurak faoliyati izdan chiqishi bilan boradigan kasallik. Kasallikning kelib chiqish sabablari oxirigacha o`rganilmagan. Kasallik kelib chiqishiga asosiy sabab irsiy moyillikning tashqi muhit va organizmning ruhiy holatining birlashushi orqali kelib chiqadi deb qarashadi. Gipertoniya kasalligi patogenezida simpatik-adrenal sistema faolligi oshishi va adrenoretseptorlar faoliyati o`zgarishi katta ro`l o`ynaydi. Buyrakda qon aylanishi buzilishi va qonda arterial qon bosimni oshiradigan renin moddasi miqdori oshishi patogenezning muhim omillaridandir. Gipertoniya kasalligi etiologiyasida irsiy omillar, ijtimoiy muhit, kasb turi, endokrin o`zgarishlar, yog` bosish, diabet va boshqa omillarga ahamiyat beriladi.Gipertoniya kasalligi mustaqil nozoligik kasallik hisoblanib, arterial gipertenziyalarning 78-95% ini tashkil etadi. JSSTning tavsiyasiga ko`ra uch bosqichga bo`lingan. Har bir bosqichda uchraydigan o`zgarishlar haqida alohida to`xtalib o`tamiz.

Birinchi bosqich (yengil gipertenziya). Organizm tinch holatida sistolik bosim 160-170, diastolik bosim esa 95-100 mm simob ustuni bo'lishi hisoblanadi. Bu ko'rsatgichlar meyorga nisbatan yaqin bo'lganligi uchun klinik belgilari uncha ko'p bo'lmaydi.

Ikkinci bosqich (o'rta gipertenziya). Sistolik bosim tinch holatda 180-200, diastolik bosim 105-115 mm simob ustuniga teng bo'lishi. Bu holatda arterial bosim qisqa vaqt oralig'ida ko'tarilgani uchun bosh og'rig'i, bosh aylanishi, karaxtlik, ko'rishning buzilishi, stenokardiya, karaxtlik va boshqa belgilari kuzatiladi. EKG va rentgenoskopiyyada chap qorincha sezilarda holatda gipertrofiyasi aniqlanadi. Bu holatni spontan ravishda o'z o'rniqa qaytmaydi.

Uchinch bosqich (og'ir turdag'i gipertenziya). Sistolik bosim 200-230 mm simob ustuniga teng bo'ladi. Kriz holatda tez-tez takrorlanadi. Oxiri miokard infarkti va insultga olib kelishi mumkin. Bu bosqichda chap qorincha gipertrofiyasi bilan birgalikda yurak-miya, buyrak qon tomirlarida ateroskleroz ham kuzatiladi. Bu o'z funksiyasini bajarishi qiyinlashishiga, strukturasi buzilishiga olib keladi.

Gipertoniya kelib chiqishiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

Surunkali ravishda ruhiy hissiyotlar kuchayishi, stress, yomon xotiralar takrorlanishi;

Hujayra membranalari va ionlari hamda vegetativ nerv sistemalarining nuqsonlari;

Tana massasining haddan tashqari yuqoriligi (semiz insonlarning 1/3 qismida gipertoniya aniqlangan);

Qandli diabet (katta yoshdag'i diabetga chalingan bemorlatning 30-40% gipertoniya bilan kasallangan);

Muntazam ravishda osh tuzini is'temol qilish;

Turli xil yer qimirlashlari, tabiiy ofatlar, yong'inlar va ko'chkilar ham sabab bo'lishi mumkin.

Bosh miya jarohatlari(avtohalokat, yiqilish, gipotermiya).

Zararli odatlar(chekish, alkogolli ichimliklar istemol qilish, ko'p miqdorda qahva ichish)

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar gipertoniyaning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu kabi belgilar o'r ganilishi natijasida bir qancha gipotezalar mavjud. Bu gipotezalar orqali shu kabi klinik holatlar nima sababdan kelib chiqqanligi aniqlanadi. Masalan, Gelgorn gipoteziyasi, ya'ni bu gipoteziyada gipertoniya gipotalamusning orqa qismida joylashgan kuchli qo'zg'aluvchanlik va reaktivlik ya'ni giperergiya sabab bo'ladi deb qarashgan. Giperergiyani keltirib chiqaruvchi omillar, gipotalamusning simpatik yadrolari bilan bog'langan emotsiyal markazlaridagi kuchli hissiyot hisoblanadi. Ushbu tuzilmalarning giperergik holati yurak urish soning oshishi, adrenalin, noradrenalin, AKTG,kortikosteronlarning, renin kabi moddalar sintezini kuchaytiradi. Bu esa qon tomirlar devorining qisqarishini va qon oqimining tezlashishiga olib keladi. Muirad va Gayton gipotezalarida, gipertoniyaning asosiy kelib chiqish omili sifatida Na va suv disbalansi buzilishi sifatida qaraladi. Na va suvning tomirlar devorida to'planishi gipervolemiya, tomirlar tonusining ortishiga olib keladi, bu ham qon bosimini oshiradi. Shu kabi fikrlar orqali JSST umumiyligi gipertoniyaning bosqichlarida uchraydigan belgilarning tasnifini e'lon qilgan. Bunga ko'ra:

Bu bosqichda ichki a'zolarda hech qanday obyektiv o'zgarishlar ro'y bermaydi.

Bu bosqichda aortalar, uyqu, yonbosh va son arteriyalarida aterosklerotik zararlanishi va ularning ultratovush hamda angiografik belgilari namoyon bo'lishi, proteinuriya va plazmada kreatinin konsentratsiyasi oshishi, qorachiq arteriyasining markazlashgan va lokal torayishi, chap qorincha devorining gipertrofiyasi kabi belgilari yaqqol namoyon bo'ladi

Yurakda: stenokardiya, miokard infarkti, yurak yetishmovchiligi, bosh miyada: qon aylanishining vaqtincha buzilishi, insult, gipertoniq enselopatiya kelib chiqishi, ko'rish nervi o'simtasiga qon quylishi, ekssudat yig'ilishi, buyrak va plazmada kreatinin miqdori ko'payishi, buyrak yetishmovchiligi, aorta anevrizmasi kabi simptomlar kelib chiqishi bilan xarakterlanadi.

Gipertoniyaning kriz vaqtlarida bemorga ruhiy va jismoniy tinchlik berish, bemor xonasidagi chironing yoriqligi pastligi, bemor sovuq qotib qolmasligini ta'minlash zarur. Gipertoniya kriz vaqtlarida chakka suyagining so'rg'ichsimon o'sig'iga zuluk qo'llanadi. Zuluk so'lagi tarkibidagi grudin moddasi qonning suyilishiga yordam beradi. Bu ham qon bosimini tushurishga yordam olib keladi. Gipertoniya bilan kasallangan bemorlarning ovqatlanish ratsioniga alohida e'tibor berish kerak. Ovqat ratsionidan yog`li, go'shtli, dudlangan, o'ta sho'r va achchiq taomlarni chiqarib yuborish kerak. Bularning o'rniga vitamin, minerallarga boy yengil taomlarni is`temol qilishinishini ta'minlash kerak. Bundan tashqari organizmga zararli bo'lgan mahsulotlardan voz kechish, ortqicha vaznni kamaytirish ham davolash muddatini qisqartiradi. Gipertoniya kasalligi bo'lgan bemorlarni parvarish qilishda bemorga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday omillarni bartaraf etish kerak. Masalan, kuchli yorug'lik, asabiylashish, shovqinlar va boshqalar. Bemorning tez-tez va oz-ozdan ovqatlanishini nazorat qilish kerak. Har qanday kasallik belgilarini kamaytirib ular keltirib chiqaradigan asoratlarni oldini olish mumkin. Buning uchun bemor yaqinlaridan katta sabr, sinchkovlik talab etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullaxo'jayeva M.S. Patologik anatomiya. T.: tafakkur bo'stoni-2022
2. 2.Abdullahayev N.H, Karimov H.Yo, Irisqulov B.O'. Patologik fiziologiya. T.: Yangi asr avlodigi-2018
3. 3.Ziyayeva M.F. Terapiya. T.: Ilm ziyo-2017
4. Zokirxodjaev Sh.Ya, Baxritdinov Sh.S. Klinik dietologiya va nutrisiologiya. T.: Toshkent-2021
5. med24.uz- Arterial gipertoniya
- 6.Islomov M.T., Axmedov S.R. Gipertoniya: diagnostika va davolash. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2019
7. World Health Organization. Hypertension. Geneva: WHO Press, 2021.
8. Миров А.Н., Лебедев И.В. Современные подходы к лечению артериальной гипертензии. Москва: Наука, 2021
9. Kara B., Şahin M. Kardiyoloji ve Hipertansiyon. Ankara: Nobel Yayın Dağıtım, 2021

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.